

SALOM WAKAYAMA

Hali bolalar bog`chasiga qatnaydigan kichik yoshligimda O`zbekistonda Yaponiyaning "Oshin" nomli seriali juda mashhur edi. Onam bilan har kuni serialning bugungi qismi boshlanar ekan, bugungi qismda qanday qiziqali voqealar bo`lar ekan deb kutib o`tirar edik. Sevimli serialimizning bugungi qismi tugashi bilan keyingi qismni kuta boshlar edik. U vaqtlarda yapon tilida yozish va o`qishni ham bilmasam-da serialdan "Konnichiwa" degan yaponlarning salomlashuv so`zini o`rganib olib, qayta-qayta takrorlab yurar edim. Onamga qachondir albatta Oshinning vataniga (Yaponiyaga) borib konnichiwa deb salomlashib yuraman deb hadeb takrorlayverar edim. Shunday qilib menda yapon tili va Yaponiya madaniyatiga qiziqish uyg`ongan. Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti Yapon Filologiyasi kafedrasiga o`qishga kirib, 2-kursda talabasi ekanligimda Yaponiyada grant asosida ta`lim olish uchun o`tkazilgan imtihondan muvaffaqiyatli o`tib Yaponiyaning Wakayama Universitetiga o`qishga keldim. Kansai Xalqaro Aeroportiga kelib poyezd orqali Wakayamaga keldim. Stansiyadan chiqib usti yashil daraxtlar bilan qoplangan go`zal tog`lar maskaniga kelganimni ko`rib ko`nglim qandaydir yoqimli hislarga to`lgandek bo`ldi. Shu ondan boshlab men Wakayamaning go`zal tabiatiga oshno bo`ldim.

Wakayamada ilk borgan joyim shahar markaziga o`zgacha ko`rk bag`ishlab turgan Wakayama qasri bo`ldi. Bahorda ayni sakura daraxti gullagan vaqtda chet ellik do`stlarim bilan Wakayama qasriga bordik. Xuddi oq ko`ylak kiygan malikadek sakura gullari bilan o`ralgan Wakayama qasrini ko`rib, turli viedolavhalar va tabiat manzaralari tushirilgan suratlardagi go`zallik ayni shu ekanligiga amin bo`ldim.

Wakayamada men eng yaxshi ko`radigan joy Koyasandir. Koyasan Yaponiyada buddaviylik dinining markazi hisoblanadi. Koyasanda qandaydir so`z bilan ta`rif etish mushkul bo`lgin sokinlik hukm suradi. Ana shu sokinlik meni o`ziga rom etdi. Wakayama Universitetida o`qiydigan do`stim Koyasanda amaliy malaka oshirgani uchun undan Koyasan haqida ancha qiziqarli ma`lumotlarni, rivoyatlarni eshitganman.

Wakayamaning Kada nomli tumanida joylashgan Avashima jinja nomli sintoizm ibodatxonasi qo`g`irchoqlar bilan to`la ekanligini eshitib, ana shu go`zal manzarani ko`rish uchun Kadaga bordim. Haqiqatdan ham ibodatxonada sanab sanog`iga yetib bo`lmaydigan darajada juda ko`p qo`g`irchoqlar borligini ko`rib hayratda qoldim.

Wakayamadagi Kada, Wakayama qasri, Koyasan nomli Yaponiyaning go`zal tabiati va boy madaniyati uyg`unlashgan go`zal joylarga borib ko`zim yashnab, ko`nglim yayradi desam mubolag`a bo`lmas. Kelajakda yana Yaponiyaga kelsam tabiati bebaho Wakayamada yashashni xohlar edim.